

Giyohvandlikka qarshi kurashish barchamizning ishimiz

2023-yil 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti proflaktika katta inspektorlari tashabbusiga ko'ra, universitet talabalari bilan "Talabalar o'rtasida psixotrop dori vositalarini iste'mol qilish hamda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Tadbirda universitet proflaktika katta inspektori podpolkovnik Sh.Yusupov, katta leytenant O.F.Ismoilova, dekan o'rinbosari A.Azizxodjayev, tyutorlar va talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar psixotrop dori vositalari ta'sirida yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchilik, ularning salbiy oqibatlarini, har qanday huquqbuzarliklar va jinoiy xatti-harakatlar sodir etganlik uchun yoshidan va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari bilan qonuniy javobgarlikka tortilishi, talabalar turur joyining ichki tartib qoidalariga rioya qilishlari to'g'risida yoshlarni ogohlilik chaqirib ma'lumotlar berishdi.

Davra suhbatini so'ngida mavzu yuzasidan talabalarning savol, taklif hamda mulohazalari tinglanib ularga aniq javoblar va ko'rsatmalar berildi.



